

O‘ZBEKISTONDA INKLYUZIV OLIY TA’LIMNI TAKOMILLASHTIRISHGA OID ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Islomova Iroda Erkin qizi
Toshkent davlat yuridik universitetining
magistratura bosqichi talabasi

Barchamizga ma’lumki, so‘nggi yillarda mamlakatimizda inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlash, ijtimoiy tenglik va adolat tamoyillarini hayotga tatbiq etish yo‘lida muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, inklyuziv ta’limni rivojlantirish, nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlami vakillarining oliy ta’limga teng huquqli kirishini ta’minlash O‘zbekiston Respublikasining ta’lim siyosatidagi ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylangan. Bu borada mamlakatimizda qonunchilik normalari takomillashtirilmoqda, moddiy-texnik baza yanada kuchaytirilmoqda hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlar joriy etilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 66-maqsadi sifatida nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashning samarali tizimini shakllantirish, ularning hayot sifati va darajasini oshirish belgilangan. Ushbu strategiyada nogironligi bo‘lgan shaxslarning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga jalb qilinishi va faol ishtirokini ta’minlovchi inklyuziv ta’lim tizimini takomillashtirish nazarda tutilgan [1].

Oliy ta'lim tizimiga inklyuziv oliy ta'limni takomillashtirish zamonaviy yondashuvlarni talab etadi. Bu nafaqat infratuzilmani moslashtirish, balki ta'lim jarayonini pedagogik va metodik jihatdan qayta ko'rib chiqishni ham o'z ichiga oladi. Bugungi kunda rivojlangan davlatlarning ijobiy tajribasi asosida individual yondashuv va raqamli texnologiyalarni keng qo'llash, pedagog kadrlarni maxsus tayyorlash kabi yo'nalishlar inklyuziv ta'lim sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Mazkur yondashuvlarni O'zbekiston sharoitida samarali tatbiq etish orqali barcha ijtimoiy qatlam vakillariga inklyuziv oliy ta'lim olish imkoniyati yaratiladi.

O'zbekiston Respublikasida inklyuziv oliy ta'limni rivojlantirishga oid muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Dissertatsiyamizning oldingi boblarida inklyuziv oliy ta'lim tushunchasi hamda uning yuridik tabiati, inklyuziv oliy ta'lim olish huquqiga doir qonunchilik normalari va rivojlangan xorijiy mamlakatlarda inklyuziv oliy ta'limga oid konstitutsiyaviy-huquqiy normalari, inklyuziv oliy ta'lim olish huquqini ta'minlashning tashkiliy-huquqiy masalalari hamda ularga raqamli texnologiyalarni tatbiq etishning huquqiy jihatlari tahlil qilindi.

Ushbu tahlillar asosida quyidagi zamonaviy yondashuvlarni ishlab chiqish va joriy etish O'zbekistonda inklyuziv oliy ta'lim tizimini yanada takomillashtirish uchun dolzarb hisoblanadi.

Birinchidan, inklyuziv oliy ta'lim olish huquqini ta'minlash va ta'lim jarayonini tartibga solishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar bazasini takomillashtirish lozim. Inklyuziv oliy ta'lim olish huquqiga doir milliy qonunchilik normalari tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi kunga kelib ham oliy ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etishga oid munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan yagona normativ-huquqiy hujjat mavjud emas.

Aniqroq qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nogironligi bo'lgan shaxslarning inklyuziv oliy ta'lim olish huquqi kafolatlangan bo'lsa-da, ushbu huquqni amalda ro'yobga chiqarish uchun zarur bo'lgan aniq tartib-taomillar va mexanizmlar hali to'liq ishlab chiqilmagan. Ushbu masalalar dissertatsiyaning avvalgi bo'limlarida qisman tahlil qilingan edi.

Oliy ta'lim tizimida inklyuziv ta'limni huquqiy jihatdan tartibga soluvchi aniq mexanizmlarning mavjud emasligi nogironligi bo'lgan va boshqa alohida ta'lim ehtiyojiga ega shaxslarning oliy ta'lim muassasalarida to'laonli ishtirokini sezilarli darajada cheklab qo'ymoqda.

Shu sababli, oliy ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni samarali tashkil etish va muvofiqlashtirishga xizmat qiladigan, yagona yondashuvlarga asoslangan normativ-huquqiy hujjat ishlab chiqish zarurati mavjud.

Tadqiqotchi J.N.Bokiyev ham oliy ta'limda inklyuziv ta'lim olishni takomillashtirish masalasiga to'xtalib, oliy ta'limda inklyuzivlikni ta'minlashga oid munosabatlar yetarlicha reglamentatsiya qilinmasdan qolayotganligini qayd etib, davlat ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibini ishlab chiqish g'oyasini ilgari surgan [2].

Yuqoridagi holatlardan kelib chiqib, oliy ta'lim sohasida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan shaxslar uchun teng huquq va imkoniyatlar asosida sifatli ta'lim olish imkoniyatlarini ta'minlash, ularning oliy ta'limga qamrovini kengaytirish maqsadida inklyuziv ta'limni tashkil etishning huquqiy asoslarini mustahkamlovchi hamda Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlanadigan alohida nizomni ishlab chiqish va uni qabul qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tadqiqotchi J.N.Bokiyev ham davlat ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'limni tashkil etish to'g'risidagi normativ-huquqiy hujjatda inklyuziv ta'limni

tashkil etishning umumiy qoidalarini, inklyuziv ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan talablarni belgilash lozimligini qayd etib o'tgan [3].

Biz ham tadqiqotchi J.N.Bokiyevning fikrlarini to'liq yoqlagan holda, inklyuziv oliy ta'limni tashkil etishni tartibga solishga qaratilgan nizomda quyidagi masalalarni tartibga solish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- oliy ta'limdagi inklyuziv ta'limning mazmuni, prinsiplari, maqsadlari va vazifalarini aniqlab olish;
- inklyuziv ta'lim ishtirokchilari doirasini aniqlab olish (nogironligi bo'lgan, psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlashga muhtoj, sog'ligida cheklovlar mavjud shaxslar va b.);
- inklyuziv oliy ta'limda ishtirok etadigan ishtirokchilarning maqomini (huquq va majburiyatlari) belgilash;
- inklyuziv oliy ta'limga talabalarni qabul qilish va o'quv jarayonini tashkil qilish mexanizmlarini belgilash;
- inklyuziv oliy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan talablarni nazarda tutish;
- inklyuziv oliy ta'limni sifatli tashkil qilish uchun uning ustidan monitoring olib borish tartibini nazarda tutish;
- inklyuziv oliy ta'limni tashkil etishda javobgarlik masalasi va shikoyat qilish tartibini belgilash.

Ikkinchidan, oliy ta'lim tashkilotlarida o'quv jarayonini inklyuziv oliy ta'limga moslashtirgan holda modernizatsiya qilish lozim. Mazkur yondashuv ta'lim olishda alohida ehtiyojga ega shaxslarning teng huquq va imkoniyatlar ostida oliy ta'lim olish huquqini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bu jarayon infratuzilmani moslashtirish bilan bir qatorda, pedagogik

yondashuvlarni, o'quv dasturlarini va ta'lim muhitini ham qayta ko'rib chiqishni talab etadi.

Oliy ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'limni samarali tashkil etish uchun quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

O'quv dasturlarini qayta ko'rib chiqish va ularni inklyuziv oliy ta'lim talablariga moslashtirish zarur. Bunda imkoniyati cheklangan talabalar ehtiyojlari alohida e'tiborga olinishi lozim. Jumladan, o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish, nazorat turlari va baholash mezonlarini belgilashda ularning jismoniy va aqliy imkoniyatlari hisobga olinishi kerak. Masalan, ko'rish, eshitish, so'zlashish yoki boshqa turdagi nogironligi mavjud bo'lgan talabalar sog'lom tengdoshlariga nisbatan imtihonlarni o'ziga xos sharoitlarda topshirishi talab etiladi. Shuning uchun ushbu toifadagi talabalar uchun imtihon turlari va usullarini ularning individual imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda belgilash muhim ahamiyatga ega.

Toshkent davlat yuridik universitetida o'qitishning modul tizimi sharoitlarida talabalar bilimini nazorat qilish tartibi va baholash mezonlari to'g'risidagi nizomda I yoki II guruh nogironligi bo'lgan talaba yozma shaklda nazorat ishini bajarish imkoniyati mavjud bo'lmaganda, u nazorat ishini og'zaki imtihon shaklida topshirishi mumkinligi belgilangan [4].

Biroq, Oliy ta'lim tashkilotlarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi nizomda [5] (2018-yil 26-sentabr, ro'yxat raqami 3069) oraliq va yakuniy nazorat ishlarini olishda alohida ta'lim ehtiyojlari talab etiladigan talabalardan nazorat turlarini olishda ularning imkoniyatlari hisobga olinmagan.

Shunga ko'ra, oliy ta'lim tashkilotlarida ham alohida ta'lim ehtiyojlari talab etiladigan shaxs uchun nazorat imtihonlarini topshirishda ularning jismoniy va

aqliy imkoniyatlarini hisobga olib, Oliy ta'lim tashkilotlarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi nizomda I yoki II guruh nogironligi bo'lgan talabalar oraliq yoki yakuniy nazorat ishlarini yozma shaklda bajarish imkoniyati mavjud bo'lmaganda, ular oraliq va yakuniy nazorat ishlarini og'zaki imtihon shaklida topshirishi mumkinligini belgilash maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son.

2. Bokiye J. O'zbekistonda raqamlashtirish sharoitida ta'lim olishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish (oliy ta'lim misolida). Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: – 2024, 21-bet.

3. Bokiye J. O'zbekistonda raqamlashtirish sharoitida ta'lim olishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish (oliy ta'lim misolida). Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – T.: – 2024, 131-bet.

4. "Toshkent davlat yuridik universitetida o'qitishning modul tizimi sharoitlarida talabalar bilimini nazorat qilish tartibi va baholash mezonlari to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2016-yil 22-apreldagi 1-2016-son qaror // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016-y., 16-son, 172-modda.

5. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining "Oliy ta'lim tashkilotlarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son

buyrug'i // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.09.2018-y.,
10/18/3069/1965-son.